

"Yoshlar daftari" platformasiga eng ko'p arizalar kelib tushgan muammolar:

Iqtisodiy:
83 634

qishloq xo'jaligi sohasi:
50 197

ijtimoiy:
17 534

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

26 (16479)
2022-yil, 2-may
dushanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Nuqtayi nazar
2-bet

Barchamiz
mas'ulimiz!

Yoshlar siyosati
3-bet

Yuksalish
kaliti

"Yosh kitobxon"
6-bet


Oyligining yarmiga
kitob olgan ota



OBODLIK FAROVONLIKDIR

30-APREL KUNI YURTIMIZDA
UMUMXALQ XAYRIYA HASHARI
O'TKAZILDI.

3-betga
qarang ↓



Oybek RAVSHANOV,
Yoshlar ishlari agentligining korrupsiyaga qarshi
ichki nazorat xizmati rahbari

BARHAMIZ MAS'ULMIZ!

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rilmogda.


Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida ochiqlik, oshkorlik va shaffoflikni ta'minlash, jarayonlarni raqamlashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar oldidagi hisobdorlikni yo'lga qo'yish orqali samarali boshqaruv va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Agentlikda korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, uni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga mas'ul bo'lgan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tashkil etildi.

Korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda

bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurashish Yoshlar ishlari agentligining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bu borada tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik tizimidagi har bir xodim, xususan, mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatining kundalik qoidasiga aylanyapti.

Shu bois korrupsiya bilan bog'liq ariza, shikoyat yoki takliflarni agentlikning maxsus aloqa kanallari orqali o'z vaqtida yetkazishga chaqiramiz. Murojaatlar munosib rag'batlantiriladi hamda shaxsga doir ma'lumotlar oshkor etilmaydi.

Ta'kidlash lozimki, fidoyilik, sadoqat, halollik, vatanparvarlik va mas'uliyatni faoliyatimizning asosiy tamoyiliga aylantirgan holda jamoamiz oldiga qo'yilgan vazifalarni vijdonan, xolis va yuqori saviyada amalga oshirish choralarni ko'ramiz.



Bunga tegma, buni yema, bu ishni qila ko'rma... Qancha qattiq taqiqlangan, qaytarilgan narsaga bola shuncha ko'proq intiladi, qiziqishi oshib boraveradi. Afsuski, ko'p hollarda inson ulg'aygach ham bu odat saqlanib qoladi, aniqroq qilib aytganda, u nafsi, hoy-u havaslari oldida go'dakka aylanib qoladi.

Insoniyatning qon-qoniga singib, vujudida chuqur ildiz otgan bu illatni butkul yo'qotish ilojisiz. Biroq arzimagan kasallik bilan og'rikan bemorning og'ir ahvolda tushib vafot etgani, haydovchilik guvohnomasini sotib olgan yigitchaning sho'xligi va uquvsizligi oqibatida bir oila bevaqt boquvchisini yo'qotgani, "fundamenti" korrupsiyadan qurilgan uylar hali odamlar ko'chib kirmasidan qulab tushgani, pulning "kuchi" bilan uzun navbatlar qisqarib, maoshlar oshib, o'qish yoki ishga kirish osonlashib borgan sari biz yashab turgan jamiyatning ildizlarini jirkanch qurtlar yanada ko'proq va ishtaha bilan kemirayotgan bo'ladi.

Ko'rib turganimizdek, birgina korrupsiyaning o'zi na-faqat hayotimizdagi halovatni tortib olishi, balki unga nuqta qo'yishi ham hech gap emas.

Bir inson, ya'ni chaqaloq dunyoga keldi, bir necha kundana so'ng shifokorlar ona-bolaga uyga ruxsat berishadi, ammo bosh shifokorning ruxsat qog'oziga hech qol qo'ygisi yo'q. Sababini surishtirib bilishdiki, chaqaloq tug'ilganida suyunchi pulining "cho'g'i" kamroq bo'lib qolgan ekan.

Ana xolos, siz qanday yo'l tutar edingiz? Uch-to'rt so'm qistirib, tezroq ishni bitirishni o'ylarmidingiz yoki yangi chaqaloqning ilk hujjatlariga yo'q pora deb atalmish jirkanch qabohatni yo'latmasliknimi?

Agar siz birinchi yo'lni tanlab, shifokorning oq xalati cho'ntagiga ko'k pullardan solib qo'ygan bo'lsangiz, tabriklaymiz, o'yinga muvaffaqiyatli qo'shildingiz! Keyingi bosqichlarga tayyor turing: endi har oy tibbiy ko'rik, emlash kabi bepul muolajalarda, bir necha yildan so'ng bog'chaga joylashtirish tashvishlarida, maktabda o'qituvchisi yaxshiroq qarashi, qizil attestat, oltin medal bilan o'rta ta'limni tamomlashi va davlat granti asosida o'qishga qabul qilinishida sizni, aniqrog'i, cho'ntagingizni hali ko'p "beminnat" xizmatlar kutib turibdi.

"Bir yolg'ondan qirq yolg'on" deganlaridek, kattami yoki kichik - jinoyat vaqt o'tgan sari bolalab boraveradi, nanchora, bu tabiat qonuni! Mobodo ikkinchi yo'lni tanlagan kam sonli insonlardan biri bo'lsangiz, sizni ham tabriklaymiz, oldinda sizni ko'p qiyinchiliklar, imtihonlar qarshi oladi. Siz vijdongingiz, e'tiqodingiz, eng muhimi, qonun oldida g'olibsiz!

Biroq millatning kamol topishi, rivojlanishi, davlatning siyosiy kuchga aylanishida sanoqligina insonlarning "g'alabasi" kamlik qiladi. Qisqa qilib aytganda, lotinchadan tarjimai "aynash" va "poraga sotilish" degan ma'nolarni anglatuvchi ushbu qabihlikka qarshi kurashni qog'ozlarda emas, har kunimizda murosasiz olib borish kerak.

Ziyoda RAHIMBOYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

MAHALLADA 70 DAN ORTIQ IJTIMOY XIZMATLARNI KO'RSATISH YO'LGA QO'YILADI


Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ehtiyojmand aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida nuroniylar, pensionerlar, nogironlar va aholining boshqa toifalarini moddiy qo'llab-quvvatlash va ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni kengaytirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab olindi.

Yig'ilishda Prezidentimiz joriy yilning o'tgan davrida "Temir daftar", "Yoshlar daftari" hamda "Ayollar daftari", "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi haqida ham alohida to'xtalib, o'tgan davr mobaynida mazkur platformalar orqali 200 mingdan ziyod ehtiyojmand aholiga ko'mak berilganini ta'kidladi.

Qayd etilishicha, 1-iyulga qadar mahallada 70 dan ortiq ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Bunda yoshlar yetakchilari, hokim yordamchilari, xo-

tin-qizlar faoli har bir xonadonga bevosita kirib, oilalardagi haqiqiy holat va ijtimoiy xizmatlarga ehtiyojni aniqlaydi. Shuningdek, har bir oila uchun alohida ijtimoiy himoya rejasi ishlab chiqiladi va aholi murojaatlari asosida ijtimoiy xizmatlar o'z vaqtida hamda sifatli ko'rsatilishi doimiy nazorat qilib boriladi.

Yuqoridagi topshiriqlar yuzasidan biz, yoshlar yetakchilari ham manzilli rejalar ishlab chiqdik. Mahallamizdagi nogiron va chin yetim yoshlar ro'yxati shakllantirilib, ularga kerakli ko'mak berishni kelishib oldik. Hududimizdagi 8 nafar nogiron yosh va 2 nafar boquvchisini yo'qotgan yoshlarga yosh tadbirkorlar bilan hamkorlikda 500 ming so'mdan pul berdik. Navbatda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga kerakli yordamlar berish hamda ularni bepul davolashga jalb etishni reja qilganmiz.



Hayitboy HASANOV,
Sox tumani "Sarkanda" mahalla
yoshlari yetakchisi

YUKSALISH KALITI

Farzandlarimizning ma'naviy saviyasini yuksaltirish, buyuk ajdodlarimiz merosini o'rgatish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bugun har qachongidan ham dolzarb. Ayni shunday ishlarni tizimli amalga oshirish, yoshlarni Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi yo'lida xizmat qilishga safarbar etish maqsadida Prezidentimizning tegishli qaroriga asosan, "mahallabay" ishlash tizimi joriy etildi. Qaror ijrosi bo'yicha barcha tashkilotlarda muvofiqlashtirish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.



Azim XOLMAXMATOV, Yoshlar ishlari agentligi boshqarma boshlig'i

Xususan, oliy va o'rta ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha chora-tadbirlar dasturi, davlat oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida talabalar darsdan bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning turar joylarida hamda ta'lim muassasasida (ijarada yashovchi va o'z uyida istiqomat qiluvchi talabalarni qamrab olgan holda) madaniy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, tanlov va loyihalari, mushoiralarni o'tkazish bo'yicha namunaviy yillik kalendar-reja tasdiqlanib, ijroga qaratildi.

Mazkur rejaga muvofiq, oliy ta'lim muassasalarida "Zakovat" o'yini, "Yosh kitobxon" tanlovini o'tkazish, tadbirlarni guruh ichida, guruhlalararo, fakultet hamda universitet kabi bosqichlarini kengaytirish orqali talabalar qamrovini yanada oshirish belgilangan. Professional ta'lim muassasalarida "Yosh chegarachi", "Yosh qutqaruvchi" harbiy sport musobaqalarini o'tkazish bo'yicha qo'shma qaror loyihasi tayyorlandi. Unga ko'ra, "Bir ziyoli - bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchilar va taniqli ziyolilarni jalb etish ishlari davom ettirilmoqda. Xususan, 103 ta davlat OTMga 840 ta hamda 788 ta professional ta'lim muassasalari

hamda akademik liseylarga 2118 ta mahalla birlashtirilib, "mahallabay" ishlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Har bir ta'lim muassasasi bo'yicha "Yoshlar balansi" shakllantirildi. Barcha OTMda vokal instrumental va maqom ansambllari faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari boshlandi, "Talabalar teatr studiyasi" faoliyat ko'rsatmoqda. Talaba yigitlar o'rtasida futbol, talab qizlar o'rtasida voleybol bo'yicha "Vazir kubogi" musobaqalari o'tkazish belgilandi.

Ayni paytda oliy ta'lim muassasalarida 3 mingdan ortiq to'garak va klublar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularga 190 ming nafar talaba a'zo bo'lgan. Shundan san'at hamda madaniyat yo'nalishidagi to'garaklarga 32 ming nafar, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi to'garaklarga 63 ming nafar, axborot texnologiyalari yo'nalishidagi to'garaklarga 28 ming nafar, kitobxonlik yo'nalishidagi to'garaklarga 47 ming nafar yoshlar qamrab olingan. Xotin-qizlar bandleini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan to'garaklarga 19 ming nafar talaba qizlar jalb etilgan. Tanlovlar, festivallar, sport

musobaqalari, ma'naviy, huquqiy, diniy yo'nalishdagi umumprofilaktik tadbirlar bilan 450 ming nafar talabalar qamrab olingan.

Hozirda sport zallarining kunlik sig'imi 16 ming 101 nafarni, faollar zali 43 ming 770 nafarni, kutubxona sig'imi 26 ming 243 nafarni, kompyuter xonalari 23 ming 442 nafarni tashkil etadi. Jami 3113 ta cholg'u asboblari, 6523 ta sport jihozlari mavjud.

Bugungi kunda ta'lim muassasalari tomonidan to'garak va klublar sonini 3 mingdan 3500 taga yetkazish, to'garak hamda klublarga a'zo talabalar sonini 190 mingdan 350 mingga oshirish, 67 ta OTM talabalar turar joylari yerto'lalarini moslashtirish va yangi qurilish hisobidan kunlik sig'imni 12 ming 150 taga oshirish, jumladan, qo'shimcha ravishda 2400 sig'imga ega sport zallari, 2750 o'rinli faollar zali, 4500 o'rinli kutubxona, 2500 o'rinli kompyuter xonalari tashkil etish, 626 ta cholg'u asboblari, 4115 ta sport jihozlarini xarid qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Umuman, barcha statistik ko'rsatkichlar, amalga oshirilayotgan ishlar, iqtidorli yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar inson qadri uchun xizmat qilmoqda. Biz yosh yoki yoshi katta bo'lishimizdan qat'iy nazar, ilm olishdan hamda ziyo ulashishdan to'xtamasligimiz kerak. Zotan, ilm olish va uni yuksaltirish yuksak marralar cho'qqisiga chiqishning kalitidir.


FAOL YOSHLARGA BEPUL OROMGOH

Xabaringiz bo'lsa, Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi a'zolarining joriy yil 7-9-fevral kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi davomida joylardagi yoshlar yetakchilari hamda mahalla yoshlari bilan ochiq muloqot va uchrashuvlari o'tkazilib, yoshlarning taklif va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'rik-tanlov, musobaqa va tadbirlar g'oliblari ni ma'naviy rag'batlantirish ko'zda tutilgan edi.

Shu munosabat bilan 28-30-aprel kunlari Bo'stonliq tumanidagi "Yoshlar oromgohi"da Gurlan, Shovot, Urganch, Hazorasp va Tuproqqal'a tumanidan "Besh tashabbus olimpiadlari va tanlovlarida faol ishtirok etgan 245 nafar yosh hamda hududning har bir tumanidan eng yaxshi namuna bo'lgan 2 nafardan mahalla yetakchilari uchun bepul sayohat yo'lga qo'yildi.

Oromgohda yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida turli sport musobaqalari, "Zakovat" intellektual o'yini, yoshlar uchun konsert dasturlari tashkil etildi. Serg'ayrat yoshlarni bir davraga jamlagan sayohat tugagach, ishtirokchilar uylariga mamnun holda qaytishdi.

Sardor SA'DULLAYEV



OBODLIK FAROVONLIKDIR

30-aprel kuni yurtimizda "Mahalla obodligi - yurt farovonligi" shiori ostida umumxalq xayriya hashari o'tkazildi. Hasharda 8 milliondan ziyod vatandoshimiz qatnashdi.

Shu kuni 30 mingdan ziyod ehtiyojmand oilalar va 8 mingga yaqin yolg'iz qariyalarga 14 milliard so'mdan ziyod moddiy yordam ko'rsatildi. Xayriya hashari tadbirlari doirasida 5 mingga yaqin yurtdoshimizning uylari ta'mirlandi. 300 dan ziyod ziyoratgoh, 9 mingga yaqin qabriston tartibga keltirildi. 10 ming gektardan ziyod yer maydoni obodonlashtirilib, 2 ming kilometrdan ortiq ariq va zovurlar tozalandi.

Gazetamizda mahallalardagi yoshlar yetakchilari tajribasi keng yoritib borilmoqda. Bu gal ular faoliyatini yoritishga noodatiy yondashishga ahd qildik. Demak, gazetamizda yangi loyiha – “Yetakchining bir kuni”. Bu loyiha orqali yoshlar yetakchisiga kun davomida hamrohlik qilib, ularning sutkalik ish faoliyati, mehnat mashaqqatlarini ochib berishni niyat qildik.

Iqbol PARDAYEVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

BAHROMJON, SHUKRIYE AYA VA LALMIKORLIKLAR

ILK QAHRAMONIMIZ JIZZAX
VILOYATI G'ALLAOROL
TUMANIDAGI “LALMIKOR”
MAHALLASI YOSHLAR YETAKCHISI
BAHROMJON MAQSUDOV.

Dastlab tadbirkorlik sohasida faoliyat boshlagan Bahromjon mahallada shu sohaga qiziqqan yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga, biznes rejalar tuzishga alohida ahamiyat beradi. Uning fikriga ko'ra, mahallada tadbirkor qancha ko'paysa, shuncha yangi ish o'ri ochiladi va yoshlarning bandligi ta'minlanadi.




Mahalla yoshlarining hech bir murojaatini e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qilayotgan qahramonimiz 30-aprel – “Mahalla obodligi – yurt farovonligi” shiori ostida umumxalq xayriya hashari kuniga to'g'ri keldi. Bahromjon ham ish kunini mahalladagi yoshlar bilan hududni obodonlashtirishga kirishishdan boshladi. Shu bilan birga, lalmikorlik volontyor yoshlar bilan birgalikda mahalladagi 94 yoshli yolg'iz qariya Shukriye Emirsanova xonadonida tozalash ishlari olib borildi.

Bugun ham xuddi shunday bo'ldi. Qahramonimiz bilan hamrohligimiz 30-aprel – “Mahalla obodligi – yurt farovonligi” shiori ostida umumxalq xayriya hashari kuniga to'g'ri keldi. Bahromjon ham ish kunini mahalladagi yoshlar bilan hududni obodonlashtirishga kirishishdan boshladi. Shu bilan birga, lalmikorlik volontyor yoshlar bilan birgalikda mahalladagi 94 yoshli yolg'iz qariya Shukriye Emirsanova xonadonida tozalash ishlari olib borildi.




Keyingi manzilimiz mahallada yaqinda faoliyat boshlagan tikuvchilik sexi bo'ldi. Mazkur tikuv sexi faoliyatini shu paytga qadar mahallada ishsiz yosh sifatida “Yoshlar daftari”da ro'yxatda turgan Durdona Mamatmurodova yo'lga qo'ygan. Shu orqali mahalladagi yana bir nechta qizni ish bilan ta'minlagan. Tikuv sexini ochishga yoshlar yetakchisining tavsiyasi bilan ajratilgan 20 million so'mlik kredit asos bo'lgan.




Bizning galdagi manzilimiz mahalla idorasi bo'ldi. Bu yerda Bahromjon mahalla yoshlarining talab va taklifini tinglaydi. Mana, hozir ham mahalladagi vaqtincha ishsiz yoshlar ro'yxatiga olingan Shohrux G'ubaydullayevni eshitib, uning qaysi sohaga qiziqishini bilishga harakat qilmoqda.

Uning haydovchilikka qiziqishini bilgach, kasbga o'qish uchun avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish chilangarligi o'quv kursiga yetaklab bordi. Ammo Shohrux o'qishni rad qildi. Shu bois unga 1 gektar yer olib bog'dorchilik qilish taklifi berildi. Shohrux taklifni qabul qildi. Endi unga yaqin kunda bog'dorchilik bilan shug'ullanishi uchun yer ajratiladi.

Shohruxning muammosiga yechim topilgach, mahalla yetakchisi bilan yana bir ishsiz yoshning xonadoniga yo'l oldik.




Rustam Erbo'tayev 1993-yilda tug'ilgan. “Yoshlar daftari”da ro'yxatda turadi. Doimiy ish joyi bo'lmagani uchun unga subsidiya asosida o't o'rish uskunasi olib berildi. Shu bilan yana bir mahalla yoshining muammosi yechildi.



Biz yetakchi bilan keyingi manzilga otlanganimizda kun yarmidan og'gandi. Bu paytda mahalla yoshlari o'rtasida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida mahallada shaxmat musobaqasi tashkil etilayotgan ekan. Kuzatishlarimizdan bildikki, mahalla yoshlarining shaxmatga qiziqishi juda baland. Buni mahalla yoshlari orasida shaxmat bo'yicha respublika chempionatida 2-o'rinni olib, Osiyo chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritgan yoshlar ham borligidan bilish mumkin. Gap shaxmatni mohirona o'ynab, yoshlar orasida e'tibor qozongan Mahliyo Amirova haqida ketmoqda.


Mahalla yoshlari bilan birga yoshi ulug'larini ham birdek qiziqitira olgan shaxmat musobaqasi mahalla yoshlarining futbol o'yiniga ulanib ketdi. Futbol o'yinida nafaqat mahalla yoshlari, qolaversa, mahalla faollari, mahalladagi hokim yordamchisi va qahramonimiz Bahromjon ham ishtirok etdi. Biz esa Bahromjonni mahalla ahli bilan qoldirib, ortga qaytdik.



2022-YILNING ENG YAXSHI 8 TA STARTAPI

Nurillo TO'XTASINOV
tayyorladi

Startup Savant 2022-yilning eng qiziqarli va innovatsion qishloq xo'jaligi startaplari ro'yxatini e'lon qildi. Quyida sanab o'tilgan startaplarning rasmiy reytingga ega emas. Ro'yxat shuncha ma'lumot olish maqsadida taqdim qilinmoqda.



1. FARMSPEAK TEKNOLOGIYASI (NIGERIYA)

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sanoati, xususan, dehqonchilik jarayonini avtomatlashtiradigan startaplarning ko'paymoqda. Farmspeak Technology ana shunday agrotex startapi bo'lib, fermerlarga o'z ekinlarini smartfonlari orqali osongina kuzatish imkonini beradi. Bundan tashqari, ularning Penkeep qurilmasi chorva majmualaridagi harorat va havo sifatini kuzatib boradi.

2. MOOTRAL (SHVEYTSARIYA)

Qishloq xo'jaligi startapi Mootral kompaniyalar va hukumatlar uchun issiqxona gazlari (IG) chiqindilarini, qishloq xo'jaligi sohasida antibiotiklar kabi dori vositalaridan foydalanishni kamaytirish uchun innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi.

Ularning asosiy ozuqa texnologiyasi Mootral Ruminant chorva mollarining issiqxona gazlarini sezilarli darajada kamaytiradigan tabiiy ozuqa qo'shimchasidir.

3. AUGMENTA (GRETSIYA)

Augmenta - bu agrotex startapi bo'lib, qishloq xo'jaligi dalalarini aniq va to'g'ri urug'lantirishga mo'ljallangan. Ularning "Field Analyzer" qurilmasi o'g'it olish vaqtini va ekinlar miqdorini nazorat qilish uchun dala uskunalariga ulanadi. Fermerlar Augmentaning boshqaruv paneli yordamida jarayonni kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

4. ROOT AI (AQSH)

Sanoatni o'zgartiradigan yana bir innovatsion agrotex kompaniyasi - Root AI. Ularning sun'iy intellekt ilovalari fermer xo'jaliklariga ekin hamda mahsulotlarni kuzatishda yordam beradi. Xususan, kompaniyaning aqlli qurilmasi mahsulotning qachon pishganini ayta oladi va terimchilarni qachon yig'ish kerakligi haqida ogohlantiradi. Shuningdek, hozir ishlab chiqish jarayonidagi kelajak roboti Virgo barcha turdagi meva va sabzavotlarni chaqqonlik bilan yig'a olishi bashorat qilinmoqda.

5. AGRILEDGER (BUYUK BRITANIYA)

Agriledger qishloq xo'jaligi sanoatini ta'minot zanjiri darajasida rivojlantirmoqchi. Ularning asosiy maqsadi qishloq xo'jaligini yaxshi tomonga o'zgartirish uchun texnologiyadan foydalanishdir va buni shaffof hisobotlar orqali amalga oshirishni nazarda tutishmoqda. Bunda kompaniyaning ma'lumotlar bazasidan aksiyadorlardan tortib fermerlargacha - hamma foydalanishi mumkin.

6. NINJACART (HINDISTON)

Ninjacart yanada barqaror ta'minot zanjirini yaratish yo'lida harakat qilmoqda. Ayni paytda startap har kuni 60 tonnaga yaqin mahsulotni u manzildan bu manzilga ko'chiradi, bu esa oziq-ovqat chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi. Qolaversa, fermerlarning o'z mahsulotlarini iste'molchilarga tezroq yetkazishda chakana sotuvchilar, restoranlar va boshqalar bilan ham bevosita bog'laydi.

7. BIG WHEELBARROW (AQSH)

Xuddi Ninjacart singari Big Wheelbarrow ham yirik chakana sotuvchilarni mahalliy fermerlar bilan bog'lagan. Texasda joylashgan ushbu qishloq xo'jaligi kompaniyasi ta'minot zanjirini avtomatlashtirish va samarali yetkazib berish, shu tariqa vaqtni tejash va chiqindilarni kamaytirish uchun eng zamonaviy dasturiy ta'minot tizimidan foydalanadi.

8. CROFARM (HINDISTON)

Crofarm - bu iste'molchilar talabidan kelib chiqib fermer xo'jaligidan mahsulotlarni yig'ib olishga mo'ljallangan startap. U o'z daromadini, asosan, komissiyalar orqali oladi. Tarmog'ida 10 000 dan ortiq fermerlarni birlashtirishga ulguragan. Crofarm iste'molchiga mahalliy fermer xo'jaligi mahsulotini 12 soatdan kamroq muddatda yetkazib beradi.

177



IMKONIYAT

TOMORQACHILIK VA DEHQONCHILIK
UCHUN SUBSIDİYALAR

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi "Yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 132-son qaroriga binoan, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish maqsadida tuman va shaharlarda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari mablag'lari hisobidan:

- Moddiy ahvoli qiyin yoshlarga bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha miqdorda bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi;
- yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-hunarga o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlariga sarflangan xarajatlarning 75 foizgacha qismi qoplanadi;
- BHMning 8 baravarigacha miqdorda urug'lik va ko'chatlar sotib olish uchun subsidiya ajratiladi;
- tadbirkorlik faoliyati hamda o'zini o'zi band qilish maqsadida noturar joyning 12 oygacha ijara xarajatlari ko'pi bilan bir yilda 30 foiz, biroq BHMning 25 baravarigacha miqdorda qoplanadi;
- tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskuna va mehnat qurollarini xarid qilish uchun BHMning 40 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratiladi;
- professional va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan "Temir daftar"ga kiritilgan oilalar farzandlarining, shuningdek, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning ta'lov-kontrakt summasi 50 foizgacha (BHMning 50 baravaridan oshmagan) miqdorda to'lab beriladi;
- "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning ahvoli og'ir bemor farzandlariga mamlakatda yoki xorijda davolanish xarajatlari (BHM 50 baravaridan oshmagan miqdorda) qoplab beriladi;
- psixologik maslahatga muhtoj yoshlarga ixtisoslashgan nodavlat notijorat tashkilotlar hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan pulli psixologik xizmat ko'rsatilishi bilan bog'liq xarajatlari qoplab beriladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

- Imtiyozlardan foydalanish uchun nomzodlar 31 yoshdan oshmagan bo'lishi talab etiladi;
- imtiyoz "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar hamda "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning ahvoli og'ir bo'lgan bemor farzandlariga tatbiq etiladi;
- imtiyozdan foydalanish uchun talabgorlar tuman (shahar) hokimliklari, tegishli hududiy sektor rahbari yoki Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo'limiga murojaat qilishi maqsadga muvofiq. Maxsus sertifikat (pdf formatda) taqdim etiladi.



OYLIIGINING YARMIGA

KITOB OLGAN OTA

Qo'limda kitob ko'targancha darvozadan chiqar ekanman, qo'shni ayolning gapi qulog'imga chalinadi: "Shu qizning qiladigan ishi yo'q-da, qachon qarama kitobga tikilgani-tikilgan". Ichimdan nimadir uzilganday bo'ldi...

Tan olish kerak, aksariyat oilalarda kitob o'qiyotgan odamga bekorchiga qaragandek munosabat odatiy holga aylangan. Chunki hamma narsa moddiyatga borib taqalayotgan bu zamonda badiiy asarlar na qornini to'yg'izadi, na birni ikki qiladi. Aksincha, xayolni parishon, savdoyi, sarkash qilgani qoladi. Bunday toifadagilar uchun shaxmat ham, kitob o'qish ham, kunini ijtimoiy tarmoqda o'tkazish ham bir qator. Kitob ushlagan odamga ko'z qiri tushibot: "Shu ertak kitoblarni ko'tarib yurguncha, qo'liga supurgi olsa bo'lmasmikan-a? Igna tutishni o'rgan, ketmon chopishni bil, harna bir so'ming ikki so'm bo'ladi", - deb ta'na qilganday qaraydi.

Faqat ro'zg'or deb jon kuydiradigan onalarimizning bu gaplarini tushunsa bo'ladi, dersi. Lekin shu kuyunchaklarni qo'shnikkiga elakka chiqarib yuboring-chi! Yoki to'y-u tadbirida qilinadigan bor tovo'g'im, kel tovo'g'imga sarflanadigan so'mlarni bir hisob-kitob qiling. Teleseriallar qarshisida soatlab vaqt o'tkazadigan "ro'zg'orboplar"ning holini bir ko'ring! Dunyoqarashi tomorqasiday torgina bu oila farzandlarining taqdiri nima bo'ladi?

Ko'nglimda allanechuk tuyg'ular bilan yo'lda davom etarkanman, xayolimga kechagi suhbat keladi. **Sevinch - "Yosh kitobxon" tanlovi g'olibasi.** Dadasi zavodda haydovchi, onasi uy bekasi bo'lgan bu oddiygina oila farzandi bugun haqiqiy qahramon.

- Dadam 3 million oylik oladi, shu pulning yarmini o'qishim kerak bo'lgan kitoblarni olib berish uchun ajratadi, - deydi Sevinch. - Onam



“SEVINCH AVAZOVA, “YOSH KITOBXON” RESPUBLIKA TANLOVINING 20-30 YOSH TOIFASI G'OLIBI. PREZIDENT SOVG'ASI - “SPARK” AVTOMOBILI SOHIBASI.

uyda tikuvchilik qiladi, tovuq, mol-larimiz bor. Dadam kunbo'yi ishda bo'ladi, onam esa ikkita bo'yi yetgan qizi bo'lsa ham, tinim bilmaydi. Uylar toza, ovqat tayyor, kirlar yuvilgan. Mollarga qarash, o't olish, tomorqa ishlari ham ota-onamning zimmasida. Ular bizni barcha yumushlardan ozod qilib qo'yishgan.

Ota-onam oliy ma'lumotli bo'lmasa ham, bizni o'qitish uchun qo'llaridan kelgancha sharoit yaratib bergan. Oilada to'rtta farzandimiz, uchalamiz talaba. Kichik ukam bu yil maktabni bitiradi. Men va singlim Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetida davlat granti asosida tahsil olamiz. Katta ukam O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida boks yo'nalishida o'qiydi. U o'tgan yili muaytay bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'ldi, kichkina ukam esa boks bo'yicha O'zbekiston chempioni.

Havasing keladigan oila. Bunday ota-onam farzandi taqdirida ikkinchi bor yashaydi, go'yo. Uning kelajagi

da o'z davomchisini ko'radi. Farzandning vazifasi ota-onaning bolalikdagi armonlarini ro'yobga chiqarish va yete olmagan maralarini zabt etish.

Ayrimlar murg'ak bolasi-ning qo'ldan ushlab, idorama-idoram, OAV tahririyatlarida izg'iydi: xo'mraygan devorlar orasida bolaning toza xayollarini xazon qilib, yo'q joydan iste'dod yasashga urinadi. Bolaning shaffof olamiga ola-chipor ranglarni olib kirib, uni seniki-meniki degan olishuv maydoniga o'z qo'li bilan uloqtiradi. Ya'ni allaqanday tanlovlar-u mukofotlarni deb bolani bolalik dunyosidan mahrum etadi.

- Meni kitob o'qishga qiziqtirgan eng birinchi inson - onam, - deydi Sevinch. - Harflarni tanishni boshlaganimdanhar safar bozorga borganlarida kitob olib kelib berardi. Birinchi o'qigan ertak kitobim "Zumrad va Qimmat". Shundan keyin jahon xalq ertaklarini, bolalar adabiyotini, fantastik asarlarni, o'zbek va jahon

Shahruza SATTOROVA

adabiyotini o'qidim. Keyinchalik she'r mashq qila boshladim, singlim esa nasrda ijod qiladi. Onam ham, dadam ham bizni o'zlar xohlaganday bo'lishga majburlamagan, qiziqishlarimizga hech qachon to'sqinlik qilmagan, hamisha qo'llab-quvvatlagan. Tanlovga tayyorgarlik jarayonida ham bizga badiiy adabiyotlardan tashqari ilmiy adabiyotlar ham berilgan edi. Bu asarlarni dadam ham men bilan birga o'qib bordi. Dasturxon atrofida o'tirganimizda ham eng kichkina qush qaysi, dunyodagi eng katta ilon qayerdan topilgan, deb savollar beradi. Yoki shaharlarni aytib, ularning paytaxtlarini so'raydi. Bugungi kungacha qanday yutuqlarga erishgan bo'lsam, bularda oilamning o'ri beqiyos. Ular mendan hech narsa talab qilmagan, hech nimaga majburlamagan, shunchaki menga ishonishgan.

Bot-bot quloqqa chalinadi: yoshlar kitob o'qimaydi! Kattalar-chi? Yo kitobxonlik yoshlikkagina tegishli bo'lgan mavsumiy jarayonmi? Kattalardan so'rab ko'ring-chi, oxirgi mar-ta mol-holiday, xotinlar yig'ini-yu gap-gashtakdan, vaqt orttirib, qaysi badiiy asarni mutolaa qilgan ekan? Qush uyasida ko'rganini qiladi, umrida kitob varaqlamagan ota-ona bolasidan kitob o'qishni talab qila olarmidi?!

- Baribir farzandini kitobga qiziq-tirishda kattalar o'zi namuna bo'lishi kerak, - deydi kitobxon qiz. - Ota-onam juda ham ko'p kitob o'qishadi. Menda tanlovda qatnashish ishtiyoqi tug'ilmasidan oldin ham uyimizda shaxsiy kutubxonamiz bo'lgan.

Kitobxonlar ham turfa. Kimlardir davr shamollariga hamohang tebranib turish, jamiyatning ilg'or vakillari safida yurish uchun kitob varaqlaydi. Bir po'rim bo'yinboqqa qaragandek, javon to'la kitoblarni nufuz ramzi deb biladi. Ular kitobdan ko'ra o'zidagi kitobsevarni, kitobxon bo'lgan o'zini sevadi. Yana kimlar uchundir, badiiy adabiyot ehtiyoj, xolos. Har kim ko'ngli mayliga ko'ra, did talabidan kelib chiqib o'qiydi. Xoh Abdulla Qahhorning hikoyalari bo'lsin, xoh Dostoyevskiy asarlari, baridan o'z ko'ngliga dard-kash, suhbatdosh izlaydi.

Mutolaa nimaga kerak o'zi? U bizga nima beradi, degan savol tug'iladi. Hozircha tushunganlarim: mutolaa haqiqatni sezish tuyg'usini tarbiyalaydi, eshik ortidagi hayotni ko'rishga undaydi. Qaniydi, hamma kitobni sevsa, tirikchilik tashvishlaridan ortib, farzandiga kitob olib beradigan ota-onalar ko'payaversa! Biz ham Sevinch singari kitob o'qib, ota-onasiga "Spark" olib bergan yoshlarimiz haqida yozishdan, ularning ota-onasiga rahmat aytishdan charchamagan bo'lar edik!



Ijtimoiy tarmoqlar jahon tendensiyalari yayilishini yanada jadallashtirgan davrda bugungi o'zbekistonlik yoshlar kiyinish, umuman, uslub borasida kimlardan andoza o'lyapti, ular ko'proq nimalarga e'tibor berishadi?



O'ZBEKCHA "POSON"

Jalol MIRZOZODA



Dunyo yoshlari, ayniqsa, qizlar moda trendlari ortidan quvyapti. Ular "Dior" ning yangi lab bo'yog'i uchun borib sarflashga, yangi "Gucci" sumkasini xarid qilish uchun Italiyaga borishga ham tayyor. Lekin o'zbek yoshlari bu borada biroz sovuqxon. Balki, mamlakatda bu kabi olamshumul brendlarning rasmiy do'konlari yo'qligi sababdir...

O'zbekistonda uslublar borasida xilma-xillikni uchratish qiyin. Jamiyat yoshlari kiyinish borasida keskin qadam tashlashga cho'chishadi. Yigitlar deyarli "street" yoki sport uslubida kiyinadi. Urfdan qolmaydigan yarim-klassika yo'nalishida kiyinganlar ham ko'p. O'smir maktab o'quvchilari oversize kiyimlarga ko'proq e'tibor qaratishgan. Oliy o'quv yurti talabalari uchun kiyinishda ma'lum cheklovlar bor, ulardan klassik uslub talab etiladi.

Yigitlarning soch turmagida ham doimiy rasmiy shakl kuza-tiladi. Chunki jamiyatda yigitlarning sochini o'stirib yurishini qat'iy qoralaydiganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ta'lim muassasalaridagi ichki qoidalar ham yigitlardan sochni kaltalatishni talab qiladi.

Qadimgi sharqda ayollar liboslarining har bir detaliga alohida urg'u berilgan. Kiyimlar sharqona odob-axloq, go'zal an'analarga muvofiq tikilgan. Bugungi kunda ham qiz-juvonlarimiz kiyinish borasidagi bir qancha qoidalarni chetlab o'tishdan cho'chishadi. Shunga qaramay, ko'p qizlar zamonaviy uslubda kiyinishadi. Qizlar o'rtasida "casual" uslub ufrga kirgan, so'nggi kunlarda arab modasiga ham ko'p murojaat qilinmoqda. Soch turmaklari va bo'yoqlar ishlatishda minimallikka intilishadi, bunga ham jamiyatdagi qarashlar va keskin raddiyalar sabab.



Oscar de la Renta

Yoshlar atrofda gilarining kiyim-boshiga munosabatini qanday qabul qiladi? Ularning fikri qanday? Shular yuzasidan ba'zi yoshlarning munosabati bilan qiziqdik:

Nina KIM (20 yosh):

— Men sochlarimni ko'k va qizil rangga bo'yadim, chunki bu menga yoqadi. Lekin jamoat joylarida odamlarning menga qiziqib qarayotgani yoki norozi kayfiyatda ekanini sezaman. Ular buni noto'g'ri deb hisoblashadi, noodatiyligni qabul qilishlari qiyin.

Nodir (21 yosh):

— Bir oy avval ham sochlarim uzun edi. O'zim havas qiladigan film qahramoniga taqlid qilaman. Bu menga yoqardi. Lekin atrofimdagi do'stlarim sochlarimni kaltaroq turmaklashni tavsiya qilishdi. Sababi esa kulgili — bu ko'pchilikka yoqmaydi, ayniqsa, yigitlarga. Ortidan aytilgan haqoratimiz so'zlarni ham ko'p eshitganman. Hatto ochiqchasiga tahdidlar ham bo'ldi.

Dilnoza (21 yosh):

— Qishloqda o'sganman, menga tengqur qizlarga ham bolaligimdan kiyinish, pardoz qilish odoblari o'rgatib kelinadi. Ikki yildan buyon poytaxtda yashayotgan bo'lsam ham, buvilarmizning bolalikdagi o'g'itlarini unutganimcha yo'q. Iloji boricha siporoq ko'rinishga harakat qilaman. Menimcha, kishining ichki dunyosini ko'rsatib beradigan narsa uning kiyim-boshi hisoblanadi. Uslub borasida doimo qulaylik va o'zbekona an'analarga intilaman.

Sardor (24 yosh):

— Yigit kishining ko'rinishidan qat'iyati sezilib turishi kerak. Er kishining ust-boshi, sochidan timog'igacha ortiqcha, bachkana narsalardan xoli bo'lishi zarur. Erkaklarni ayollardan ajratib turadigan eng birinchi farq ham shunda. Fikrimcha, qizlar ham o'ziga oro beradigan, sochlari uzun yigitning xatti-harakatlarini ma'qullamas kerak.

Ijtimoiy tarmoqdagi so'rovnomada ko'pchilik kiyinishda, soch turmaklari va pardoz qilishda cheklovlar qo'ymasligini bildirgan. Ba'zilar esa jamiyatdagi qarshiliklar sabab cheklanish borligini, ba'zilar esa o'z-o'ziga uslub borasida chegara qo'yishini aytgan.

Haqiqatan, kiyinish kishining ichki dunyosi, u yashayotgan muhit, did borasidagi qarashlarini namoyon qiladi. Ammo bu borada cheklovlar, qat'iy mezonlar qo'yish kerakmi? Siz qanday fikrdasiz, tengdosh?

QAMROV 200 MINGGA KENGAYDI

An'anaviy "Yoshlar ovozi" Bo'zatov festivali yosh iste'dodlarni kashf etish, qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyat bermoqda. Samarqandda ham yangi ovozlarni kashf etildi.

Festivalning ilk bosqichida hududdan 31 ming 291 nafar san'atga ishtiyoqli baland o'g'il-qiz ro'yxatidan o'tgan edi. Ular mahalla, sektor, tuman va shahar bosqichlarida saralanib, 4-bosqichga 128 nafar iqtidor egasi yetib keldi.

— Sahnaga necha marta chiqishingizdan qat'iy nazar, baribir hayajon bo'ladi, — deydi tanlov ishtirokchisi Dilroza Murodullayeva. — Chunki bu yerda haqiqiy san'at ustalari, ustozlarimiz o'tirishibdi. Hayajon kuchli bo'lsa-da, taassurotlar d'o darajada. Tanlov haqqoniy, ochiq o'tyapti. Yangi O'zbekiston yoshlarining ovozi yanada balandroq yangrashi uchun bu tanlov katta imkoniyat bo'ldi. Har bir yosh o'z qobiliyatini ko'rsatishi uchun katta maddi maydon yaratilgan.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir yosh tanlovda o'z omadini sinab ko'rishi mumkin. Shu bois festivalning qamrovi bu yil 200 mingga yaqin yigit-qizlar bilan kengaydi.

— Yoshlar ishlari agentligi, Madaniyat vazirligi va qator tashkilotlar hamkorligida o'tkazilayotgan festivalning Toshkent shahar bosqichiga 86 nafar yosh iste'dod egasi yetib kelgan.

Hakamlar hay'ati tanlov ishtirokchilarining ijro mahorati va uslubi, ovoz imkoniyatlariga e'tibor qaratishdi. Tanlov yo'nalishlari bo'yicha 1-o'rinni egallagan yoshlar respublika bosqichi — Bo'zatovga yo'lanmani qo'lga kiritdi.

Lobar QODIROVA



“KELAJAK YOSHLARI” TA'LIM GRANTI

“Najot Ta'lim” va “Cambridge LC” jamoalari o'zaro hamkorlikda kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni mustaqil hayotga qadam qo'yishida ko'maklashish maqsadida “Kelajak yoshlari” nomli grant loyihasiga qo'l urishgan.

Ushbu xayriya aksiyasi har yili Ramazon oyida boshlanib, keyingi Ramazon oyining oxirida yakuniga yetadi. Grant loyihasining 2022-yilgi qabuli uchun umumiy miqdorda 1 milliard 200 million so'm mablag' ajratildi.

Unga ko'ra 60 nafar yigit-qizga ingliz tili hamda IT sohalarini, jumladan, dasturlash va grafik yo'nalishlarini 1 yil davomida mutlaqo bepul o'rganish imkoniyati beriladi.

Ya'ni grant g'oliblari “Cambridge LC” markazida ingliz tilini hamda “Najot Ta'lim” markazida esa raqamli dunyo kasblaridan birini tanlagan holda ta'lim olishlari mumkin.



“Kelajak yoshlari” ta'lim grantida respublikamizning istalgan hududida istiqomat qiluvchi, 15 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan yoshlar ishtirok etishi mumkin.

Talabgorlar “Najot Ta'lim” va “Cambridge LC” jamoalarining mas'ul a'zolari tomonidan motivatsion xat va suhbat orqali saralab olinadi.

“Cambridge” va “Najot Ta'lim” jamoalari ushbu xayrli ishdan hech qanday moddiy manfaat ko'zlamagan bo'lib, uni o'z qadriyatlaridan kelib chiqqan holda millat va Vatan oldidagi burchi o'laroq amalga oshirmoqda.

“Najot Ta'lim” – ilm va tajriba ulashamiz!

☎ 71 200 11 23

🌐 najottalim.uz

📱 @najottalim

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA'DULLAYEV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 104083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

“Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etiladi. Hajmi – 2 bosma tobaq. Korxonangiz manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma o-555, Adadi – 10586. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6